

ZAMON KATEGORIYASINING GOMOGENLIK VA GETEROGENLIKKA MUNOSABATI

Kenjayeva Zahro Suyunovna

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi, zahrokenjayeva670@gmail.com

Gomogenlik (yunoncha *homogenes*) (tarkibi yoki kelib chiqishi bo'yicha bir xil bo'lgan holat) bir xillik, o'xshashlik, statistik tanlamaning ma'lumotlari o'rtacha arifmetik yoki mediana atrofida to'plangan, kichik standart og'ish bilan namoyon bo'ladigan va ma'lumotlarning bir-biridan kichik farqini ko'rsatadigan xususiyat. Yoki uni ma'lum bir populyatsiya a'zolarining o'zaro o'xshashlik darajasi, bir xilligi tarzida ham ifodalash mumkin¹. Bu tushunchaga psixologik jihatdan yondashilganda statistik tanlamaning ma'lumotlari o'rtacha arifmetik yoki mediana atrofida to'plangan, kichik standart og'ish bilan namoyon bo'ladigan va ma'lumotlarning bir-biridan kichik farqini ko'rsatadigan xususiyat deb tushunish mumkin.

Kant falsafasida *bir jinslilik* prinsipiga ko'ra, tur tushunchalari bir-biri bilan umumiy bir narsaga ega bo'lishi kerak, bu ularni umumiy tushuncha bilan birlashtirishga imkon beradi².

Geterogenlik (*heterogenes*) tamoyili, o'z navbatida, umumiy tushuncha bilan birlashtirilgan tur tushunchalarining bir-biridan farqlanishini talab qiladi. Zamonaviy g'oyalarga ko'ra, bir xillik prinsipi bir xil bo'lmagan tamoyillarni yagona nazariya doirasida birlashtirishni taqiqlaydi. Ushbu tamoyilning buzilishi eklektizmga olib keladi³.

Geterogenlik tushunchasi turli fan sohalarida yo'nalish jihatidan turlicha, ammo g'oyaviy-mohiyat tomonidan bir-biriga yaqin mantiq bilan istifoda etiladi.

Xususan:

Fizika va ximiyada geterogenlik tushunchasi, ayniqsa, bir nechta fazalarni o'z ichiga olgan tizimlarga, ya'ni fizik jihatdan bir jinsli bo'lmagan (geterogen tizim) va fazalar chegarasida sodir bo'ladigan reaksiyalarga, masalan, geterogen katalizga nisbatan qo'llaniladi. Bu atamaning antonimi gomogen atamasi bo'lib, u o'z navbatida bir xil muhitni yoki bunday muhitdagi (ya'ni bir faza doirasidagi) reaksiyani, masalan, bir jinsli kataliz, bir jinsli reaksiyani bildiradi.

¹ Мещеряков Б. Г., Зинченко В. П. Большой психологический словарь. – С. 100. (– 632 с) <https://srbguga.ru/files/03-5-01-005.pdf>

² *Философский словарь. Под ред. И.Т. Фролова.* – М., 1991. – С. 96.

³ *Философский словарь. Там же.*

Genetikada bu atama biroz o‘ziga xos ma’noga ega va bir nechta barqaror birikmalarda qo‘llanadi.

Lisoniy birliklarning gomogen yoki geterogen qiymati esa ularning sathlararo munosabati bilan bog‘liq.

Odatda tilning qimmat jihatidan bir xil birliklarining yig‘indisi lisoniy sath sifatida qaraladi. Chunonchi, fonetik sath, morfologik sath, leksik sath tarzida. Ayrim olingan bir tildagi fonemalarning o‘zaro munosabati majmui fonologik sathni tashkil etgani holda, morfemalarning munosabat nisbati morfologik sathni birliklari sanaladi.

Lisoniy sath tushunchasi hozirgi tilshunosligimizda keng tarqalgan bo‘lsa-da, tilning sathlarga bo‘linishida bir xillik ko‘zga tashlanmaydi. Biroq aksariyat tilshunos olimlar tilning sathlarini quyidagi tartibda bo‘lishiga rag‘bat bildiradilar: 1) fonologik sath; 2) morfemik sath; 3) leksik sath; 4) morfologik sath; 5) sintaktik sath; 6) ustsintaktik (supersintaktik) sath kabi.

Bu sathlarning har biri o‘zining muayyan birliklariga ega: fonologik sathning birligi – fonema; morfologik sathning birligi – morfema; leksik sathning birligi – leksema; morfologik sathning birligi – so‘zshakl; sintaktik sathning birligi – sintaksema; ustsintaktik sathning birligi – matndir⁴.

“O‘zbek tili grammatik kategoriyalarini shakllarining bir sathga yoki har xil sathga mansubligiga ko‘ra ikkiga bo‘lish mumkin:

- a) gomogen shaklli kategoriyalar;
- b) geterogen shaklli kategoriyalar.

Gomogen shaklli kategoriyalar sifatida **kelishik, son, nisbat va o‘zgalovchi kategoriyalarni** ko‘rsatish mumkin. Bu kategoriyalarning tashkil etuvchilari faqat bitr sath (morfemika)ga tegishlidir. Shu boisdan ularga gomogen atamasini qo‘llash o‘rinli. **Kesimlik, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, daraja, harakat tarzi kategoriyalari shakllari geterogen** shaklli kategoriyalar hisoblanadi. Chunki ularning tashkil etuvchi birliklari birdan ortiq sathga mansub bo‘ladi.

Misol sifatida fe‘lning bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasini olib ko‘raylik. Har qanday fe‘l nutqda bo‘lishli, yoki bo‘lishsiz shaklda verballashadi. Ma’lumki, bo‘lishli shakl harakatning yuz bergan/berayotgan/beradiganligini, bo‘lishsiz shakl esa yuz bermagan/bermayotgan/bermaydigan harakatni ifodalaydi.

Ma’noni ifodalashda fe‘l bo‘lishli-bo‘lishsizlik maqomi bilan geterogen (har xil) tabiatlilik qiymatiga ega bo‘ladi, ya’ni turli sathga mansub lisoniy birliklar bo‘lib nutqda zohir bo‘ladi. Chunki bu ma’noni ifodalashda -ma, -may, -maslik morfologik ko‘rsatkichlaridan tashqari, na nomustaqil so‘zi ham ishtirok

⁴ <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/morfemik-sathning-til-sathlari-orasidagi-o-rni>

etadi. Ba'zi ilmiy adabiyotlarda *yo'q, emas* inkor ifodalovchi so'zlarini ham shu kategoriya sirasiga kiritilgan. Bu fikrga, albatta, qo'shilish qiyin. Zero, bu so'zlar fe'l kesim vazifasida kelgandagina inkor ma'nosini shakllantiradi va bu doirasidan tashqariga chiqadi.

Garchi, nutqda o'qigani yo'qligini bilmayman tipidagi qurilmalarda yo'q so'zi qatnashsa-da, bu qolip o'qigani yo'q predikativ qo'shilmalarning semantik transformatsiyasi hisoblanadi. Ko'rinadiki, baribir, yo'q so'zi fe'lning emas, balki kesimlikning inkor shaklidan nariga o'ta olmaydi.

Emas inkor shakli ham shunday xususiyat tabiatiga ega. Ba'zan undan qiyoslanayotgan ikki harakatdan o'zgalovchi shaklidagi fe'l bilan ifodalangan ish-harakatning inkorini ifodalash uchun foydalanilishi mumkinligi keltiriladi: *Kulib emas, yig'lab gapirdi. Yurishi emas, kulishi yoqadi.* Bu kabi birikuvlarda ham predikativ qo'shilmaning qisqaruvi namoyon bo'ladi: *Kulib gapirdi emas, yig'lab gapirdi. Yurishi chiroyli emas, kulishi yoqadi* kabi.

Ko'rinib turibdiki, daraja kategoriyasi sifatida qaralayotgan tizimning o'zini ham bir kategoriya sifatida emas, balki undan kattaroq butunlik sifatida qarashga ehtiyoj mavjud.

O'zbek tilshunosligida ham daraja ma'nosi «belgi darajasi» umumiy grammatik ma'nosiga ega bo'lib, u turli sathga mansub (geterogen) shakllar yordamida hosil qilinishi ta'kidlanadi: *go'zal-go'zalroq-juda go'zal.*

Ko'rinib turibdiki, xususiy grammatik hodisalarda u yoki bu tarzda qayd etilayotgan darajalanish hodisasi o'zini yangi muammo sifatida ko'rsatmoqda. Xullas, tilning fonologiya, leksika, so'z yasalishi va grammatika kabi sathlari nafaqat o'z tarkiblarida, balki o'zaro bog'lanishlarida ham darajalanish hodisalariga ega bo'lib, bularning o'ziga xos xususiyatlarini atroflicha o'rganish hozirgi tilshunoslik oldida turgan dolzarb muammodir⁵.

Shu ma'noda o'zbek tilining deyarli barcha sathlari birliklariga gomogenlik tamoyili qo'yilgan bo'lsa-da, ularni sinchiklab tadqiq qilish bu faraz ancha cheklanganlik xarakteriga ega ekanligini ko'rish mumkin. Chunonchi, tilning fonetika sathi faqat tovushlarni, morfologiya sathi so'zning tarkibiy qismlarini, leksikologiya esa so'zning shakl hamda semantik belgilarini o'rganishi bashorat qilinadi, ya'ni sathlarning aksariyatida gomogenlik qiymati ustun ekanligi uqtiriladi⁶.

⁵ Элмуродова Л. Н. Ўзбек тилида даража функционал-семантик майдони (белги даражаси микромайдони): филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 13-17.

⁶ Решетов В.В., Иброҳимов С. И., Турсунов У. Т., Камолов Ф. Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1957. – 392 б.; Ҳожиев А. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 448 б.; Ҳозирги замон ўзбек тили. Лексикология. Фонетика. Графика ва орфография. Морфология. Фахри Камол таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1957. – 514 б.; Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1976. (– 392 б.);

Ma'lum bo'ladiki, lisoniy sathlarni pastdan tepaga qarab qat'iy ravishda tartiblash mumkin. Har bir yuqori sath birligi o'zidan pastda turadigan sath birliklarining sintagmatik munosabatidan yuzaga keladi, demak, fonemalarning sintaktik munosabatidan morfem sath birligi – morfema paydo bo'ladi, morfemalarning sintagmatik munosabatidan esa morfemik sath birligi hisoblanadigan so'zshakl paydo bo'ladi, so'zshakl o'z navbatida, morfemalarga aniqrog'i morfem variantlarni vujudga keltiradi.

1. Til tizimidagi har bir sath birligi – fonema, morfema, leksema, so'zshakl, sintaksema, matn lisoniy birliklari (lingvistik) deyiladi.
2. Lisoniy birliklar lisoniy tizimdagi tutgan o'rniga ko'ra bir-biriga oppozitsion ikki xil munosabatda turadi. Ularni: 1) gomogen – bir sathga xos bo'lgan birliklar munosabati; 2) geterogen – turli sathlarga oid bo'lgan (sathlararo) birliklar munosabatiga ajratish mumkin.
3. Gomogen yoki gomogenlik birliklari munosabati.

Gomogen birliklar bir-biri bilan ikki xil munosabatga kirisha oladi:

- 1) sathdoshlik yoki paradigmatik munosabat; 2) diskretiv yoki ketma-ketlik munosabati.

Gomogen yoki qiymat jihatidan bir xil birliklarning ma'lum umumiy belgisi asosida bir guruhga (sathga) birlashuvi sathdoshlik munosabati hisobladi⁷. Lisoniy birliklarning bunday munosabatini belgilash uchun ko'proq umumiy semantik belgisi rol o'ynaydi.

Gomogen bo'lgan birliklar nutq jarayonida o'zaro ketma-ket bog'lanib, ma'lumot ma'lum axborot tashish uchun xizmat qiladi. Har bir lisoniy birlikning vazifasi ketma-ketlik (sintagmatik) munosabatga kirishishda namoyon bo'ladi. Nutq jarayonida ikkita birlikni hech vaqt bir yo'la talaffuz etish mumkin emas.

Muayyan cho'ziqlikka ega bo'lgan ikki va undan ortiq unsurlarning ketma-ket munosabati ketma-ketlik (sintagmatik) munosabat sanaladi. Masalan, *bolalarning* so'zshakli *bola+lar+ning* morfemalari bir qatorda ketma-ket joylashadi.

Sintaktik munosabat yordamida tilning bosh vazifasi kommunikativ vazifa amalga oshadi.

Geterogen – murakkablik darajasi bir xil bo'lgan lisoniy birliklar munosabatidan tashqari, turli sathga mansub, turli murakkablikdagi birliklar ham o'zaro munosabatga kirishadi. Murakkablik darajasi turli xil bo'lgan, ikki xil sathga mansub lisoniy birliklar munosabati pog'onali munosabat deyiladi. Bunday munosabatni "... dan tashkil

Шоабдурахмонов ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. (– 351 б.); Сайфуллаева Р. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2010. – 376 б.

⁷ <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/morfemik-sathning-til-sathlari-orasidagi-o-rni>

topadi”, “tarkibiga kiradi” ifodasi bilan berish mumkin. Shunday qilib, morfologik sath birligi bo‘lgan so‘zshakl morfemik sath birligi bo‘lgan morfemalarning (morfemik variantlarning) o‘zaro sintagmatik munosabatidan tashkil topadi. Morfema (morfema varianti) esa so‘zshakl tarkibiga kiradi.

Lisoniy birliklarning murakkablik darajasi nisbiydir. Uning murakkab deb nom olinishi o‘zidan bir daraja quyi sath, birligiga nisbatandir. Masalan, morfemik sath birligi bo‘lgan morfemaning murakkab (qurilma, sistema) deb nom olinishi fonologik sath birligi bo‘lgan fonemaga nisbatandir. Morfema, o‘z navbatida, morfologik sath birligi bo‘lgan so‘zshakl uchun element, qurilish (konstruktiv) a‘zosi sanaladi. So‘zshakl morfemaga nisbatan murakkab, sintaksemaga nisbatan esa unsur (element) sanaladi⁸.

Morfologiya sathining geterogen belgilari borasida o‘zbek tilshunosligida L. Elmurodovning nomzodlik dissertatsiyasida fikr yuritiladi:

“Asliy sifatlarda belgi: a) oddiy daraja; b) orttirma daraja; v) ozaytirma darajalarga bo‘lib tasnif etiladi.

Oddiy daraja hech qanday grammatik vositasiz ifoda etiladi. Unda darajaning umumiy ma‘nosi belgining ortiq-kamligiga munosabatsiz shaklda xususiylashadi: *yomon, yumshoq, oriq, semiz, tor, yuksak, egri* kabi.

Orttirma daraja belgining meyoriy holatdan yuqoriligi, balandligini ifodalab, u darajaning umumiy ma‘nosini «belgining odatdagi meyordan ortiqqligini ifodalash» yo‘sinida muayyanlashtiradi. Bu daraja maxsus morfologik ko‘rsatkichga ega bo‘lmaydi. Daraja ma‘nosi ifodalovchisining geterogenligi mazkur darajada aniq ko‘rinib turadi. Umuman olganda, orttirma daraja quyidagi usullar vositasida voqelanadi:

1. **Fonetikaga oid usul.** Buning bir qancha ko‘rinishlari bor: a) *sap-sariq, beb-bemaza, ko‘m-ko‘k*; b) urg‘u olgan bo‘g‘inning cho‘zilishi: *u:zun, bala:nd, chiro:yli*.

2. **Leksikaga oid usul:** *juda go‘zal, g‘oyatda zerikarli, nihoyatda o‘jar*.

3. Belgining ortiq darajasi analitik usul bilan ham ifodalanadi. Bu shakl ikki qismli bo‘lib, birinchi qismda chiqish kelishigi ko‘rsatkichini qo‘shish bilan yuzaga keltiriladi: *qiziqdan qiziq, shakardan shakar*.

Ozaytirma daraja daraja umumiy ma‘nosini «belgining meyordan pastligini ifodalash» ko‘rinishida namoyon qiladi. Bu usul ham ma‘noni ikki yo‘sin bilan yuzaga chiqaradi:

1. **Leksik yo‘sin:** *sal cho‘ziq, bir oz durust, xiyol ko‘k*.

⁸ Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент, 1994.

2. Morfologik yo'sin: *uzunroq, chog'roq, torroq*⁹.

Ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilida grammatik ma'noni ifodalovchi ko'plab vositalar grammatik kategoriya sifatida qaralganidan juda ko'pgina erkin sintaktik birikmalar ham grammatik kategoriyaga nisbat beriladi va natijada darajaning morfologik ifodasi bilan boshqa nomorfologik hodisalar qorishtiriladi. Aslida o'zbek tilida mazkur ma'nolar turli sathlarda turlicha vositalar bilan ifodalanadi va ular bitta funksional-semantik maydonni tashkil etadi. Biz yuqorida tilga olgan geterogen shakllar mazkur nuqtai nazardan maxsus tadqiq etilmagan. Tilshunoslikdagi aytilgan kategoriyalar doirasidagi mavjud muammolar uni funksional-semantik maydon sifatida o'rganish asosidagina bartaraf etiladi¹⁰.

Bu talqinlar morfologik sath birliklarining gomogenlikka munosabati emas, balki mazkur sathning ichki belgilari tasnifi hisoblanadi: *kattaroq, ko'proq, ozroq* tarzidagi so'z formasining o'zgarishi uning boshqa sath darajasidagi qiymatiga ta'sir etmaydi. Ta'kidlanganidek, tilda zamon kategoriyasining grammatik shakllari temporallikning asosiy ko'rsatkichi sanaladi. Temporallik hodisasi uchun (zamon kategoriyasi uchun ham) falsafiy va fizik zamon o'lchamlari, shuningdek, tabiat hodisalari zamon hisobining ko'rsatkichlari sifatida xizmat qiladi. Zamon hisobi esa obyektiv nuqtadan boshlanadi. Bu so'zlovchi nutqining har bir bo'lagida oydinlashadi, ya'ni tilda grammatik shaklda voqelanadi.

A.V.Bondarko xulosasiga ko'ra temporallik – funksional-semantik struktura, unga zamon kategoriyasining grammatik shakllari va sintaktik strukturalar bilan bir qatorda leksik birikmalarning ko'p sonli kombinatsiyalari ham kiradi. “Temporallik kategoriyasi – temporal semantika va uni tilda ifodalashning turli vositalari sistemasining ikki tomonlama birligi, ya'ni funksional-semantik kategoriyadir¹¹.

Temporallikni tushunish uchun badiiy asarda, matnda zamonning qanday tasvirlanishi va idrok qilinishini aniqlab olish zarur. Real hayotda zamon bu – obyektiv vaqtdir. Real zamon doim oldinga – o'tmishdan kelajakka tomon siljib boradi. Shu zamolni inson o'z hissiyotlari va tasavvuridan kelib chiqib, har xil qabul qiladi.

Falsafada zamon kategoriyasi barcha narsa-hodisalarni bog'lovchi universal tashqi va ichki unsurlar sifatida belgilanadi, hodisalar realizatsiyasi, diskretlik, uzluksizlik, mutlaqlik, qiyosiylik, cheklilik va cheksizlik uni tavsiflaydi, uning harakati hamda o'zgarishini aniqlaydi. Fizikaviy vaqt o'lchov, qismlar hisob sifatida qabul qilinadi. U takroriylik, diskretlik (ketma-ketlik), metrik sifatlar (uzoqlik, aniqlik, bir tartiblilik,

⁹ *Eslatma.* Rang-tus bidiruvchi ayrim sifatlarda qo'llanuvchi -(i)sh, -(i)mtir affikslari belgining kuchsiz darajasini bildirmaydi. Masalan, *oqish* so'zi oq rangning, *qoramtir* so'zi qora rangning kuchsiz darajasi emas, balki oq, qora bo'lmagan, lekin ularga o'xshash bo'lgan rang turlaridir.

¹⁰ Elmurodova L. Keltirilgan dissertatsiya. – B. 16–17.

¹¹ Бондарко А.В., Беляева У.И. Ко'rsatilgan manba. – С. 5.

davriylik) kabi xususiyatlarga ega. Zamonni his qilish – dunyo o‘lchamida fizikaviy ko‘rsatkichi emas, bu – zamonning qiyosiy va ifodaviy baholanishidir. O‘tmish, hozir va kelajak modusi bir-biri bilan bog‘liq va uzluksiz bo‘lishiga qaramay, fizikaviy vaqtning sharti (garovi) hisoblanadi. U qaytmaydigan, ortga siljmaydigan zamondir. Zamonning qiyosiy modusi esa o‘zgacha. Bunda hayotiy tushunishda alohida individ va jamoaning qarashlarida zamon qiyosiy shaklda hisobga olinadi, qabul qilinadi va baholanadi. Individual zamon, ya’ni lineer zamon bu – inson kechiradigan hayotning qismlari: butun hayoti, uning tug‘ilishi, bolaligi, o‘smirligi, yoshlik davri, ulg‘aygan payti, qariligi va boshqalar. Sikllilik va o‘zgarishlar moduslari spiralsimon shaklda kechadi, ularga yil fasllari: bahor, yoz, kuz va qish; fasllarning qismlari: kun, hafta, oy, yil; bir sutka qismlari: kunduz, kechqurun, tun kiradi. Har qanday madaniy-etnolingvistik makoniy xususiyatlar temporal o‘lchamdagi milliy-madaniy idrok orqali aks etadi. Masalan, insoniyat bahor – bolalik, yoz – o‘smirlik, yoshlik, kuz – ulg‘ayish, qish – keksalik sifatida tushunadi.

Zamon ko‘rsatkichlarini tadqiq qilgan Y.K.Lukyanova shunday yozadi: “Zamon kundalik ong darajasida mavhum falsafiy kategoriya yoki makon-zamon kontinuumidagi (zamonaviy fizikaviy terminlar) to‘rtinchi koordinata kabi mavhum tushunchadek tasavvur qilinmaydi. Inson zamonni idrok qilishga asoslangan subyektiv zamon kategoriyalari bilan fikrlaydi”¹².

Muallif hayot va zamon o‘rtasidagi munosabatlar mazmunida farqli tomonlarni chuqurroq ochib berishga harakat qiladi: “Zamon va umr leksemalari ko‘p hollarda birga ishlatiladi va bu bejiz emas: zamon, eng avvalo, muayyan inson umrining voqealari bilan dolzarbdir. Inson lisoniy ongi uchun zamonning sifat xususiyatlari xosdir: zamon – voqealar makoni sifatida umr uchun boshqa nom hisoblanadi, umr esa zamon kategoriyalari orqali idrok qilinadi va tasvirlanadi (onlar, lahzalar, davrlar...)”¹³. Zamonning temporal xususiyatlarini hamda uning fizik, badiiy va falsafiy zamonga nisbati badiiy va grammatik zamon bir-biridan farqlanishida, bu zamonlar ayrim mushtarakliklar borligida, fizik zamon Vektor nolidan boshlanishida, grammatik zamon bilan muayyan grammatik ishoralar bilan voqelanishida, badiiy zamonning grammatik zamonga o‘tishi ayrim shakllar vositasida namoyon bo‘lishida ko‘rinadi.

ADABIYOTLAR:

1. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикология асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 130 б.

¹² Лукьянова Ю.К. Восприятие времени в русской языковой картине // Русская сопоставительная филология: Лингвокультурологический аспект. – Казан: Казан гос. ун., 2004. – С. 150–155.

¹³ Султонова Ш. Баддий матнда зamon категориясининг ифодаланishi. <https://journal.fledu.uz/uz/badiij-matnda-zamon-kategoriyasining-ifodalanishi/>

2. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ қилиш. – Тошкент: – Б. 80. – 156 б.
3. Хакимова М.К. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси: филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 70 б.
4. Ўзбек тили грамматикаси. 1- жилд. Морфология. – Т.: Фан, 1975, – Б. 475-476.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 3-жилд. Н – Тартибли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 688 б.
6. Ўзбек тили лексикологияси. Масъул муҳаррирлар: А.Ҳожиёв, А.Аҳмедовлар. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 133.